

34-§ LABORATORIYA ISHI


SUYUQLIKNING SIRT TARANGLIK KOEFFITSIYENTINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: suyuqlikning sirt taranglik koeffitsiyentini aniqlashni o'rganish.

Kerakli jihozlar: sezgir dinamometr, shtativ, uchburchak, kvadrat va aylana shaklidagi simlar, suv solingan idish, chizg'ich, shtangensirkul.

Ishni bajarish tartibi

1. Dinamometrni shtativga o'rnatib (47-rasm).
2. Chizg'ich yordamida uchburchak shaklidagi simning perimetri l ni o'lchang.
3. Dinamometrning pastki halqasiga uchburchak shaklidagi simni iling va uning og'irlik kuchi F_1 ni o'lchang.
4. Idishdagi suvni ko'tarib, dinamometrغا osilgan simga tekkizing.
5. Idishni sekin pastga tortib, simning suvdan uzilishi paytidagi dinamometrning ko'rsatishi F_2 ni yozib oling.
6. $F = F_2 - F_1$ formuladan sirt taranglik kuchini toping.
7. $\sigma = \frac{F}{2l}$ formula yordamida suvning sirt taranglik koeffitsiyentini hisoblang.
8. Tajribani to'rtburchak va aylana shaklidagi simlarda ham bajaring, σ_2 va σ_3 ni hisoblang. $\sigma_{o'rt} = \frac{\sigma_1 + \sigma_2 + \sigma_3}{3}$ formula yordamida sirt taranglik koeffitsiyentining o'rtacha qiymatini hisoblang.



47-rasm.

9. Tajriba davomidagi o'lchash va hisoblash natijalarini jadvalga yozing.

№	m , kg	l , m	σ , N/m	$\sigma_{o'rt}$, N/m
1				
2				
3				

1. Sirt taranglik kuchi nimaligini tushuntirib bering.



2. Nima sababdan simni suvdan ajratib olishda kuch kerak bo'ladi?
3. Tajriba natijalarini tahlil qilib, xulosangizni yozib keling.